IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: YG66039852

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SUDYALAR OLIY KENGASHI RAISINING BUYRUG‘I

2026-yil 30-iyun № 65

Davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoniga asosan,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashida davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi komissiya quyidagi tarkibda tuzilsin:

Komissiya raisi:	**Boboxonova Nodira Aloxonovna** - Sudyalar oliy kengashi raisining o‘rinbosari
Komissiya a’zolari:	**Shukurlayeva Guli Yusupovna** - Kengash sudyasi
	Davletmuratov Sultanmurat Rustemovich - Kengash sudyasi
Komissiya kotibi:	**Tleumuratova Sarbinaz Erejep qizi –** Kengash arxiv mudiri

2. Komissiyaga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

-davlat xaridlariga oid kelib tushgan shikoyatlarni belgilangan tartibda qabul qilish va ko‘rib chiqish;
-shikoyatlarda ko‘rsatilgan holatlar yuzasidan zarur hujjat va ma’lumotlarni o‘rganish;
-shikoyatlarni xolisona, har tomonlama va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish;
-qonunchilik talablarining buzilishi holatlari aniqlanganda tegishli xulosalar va takliflar tayyorlash;
-shikoyatlarni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish hamda manfaatdor tomonlarni xabardor qilish.

3. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish o‘z zimmamda qoldiraman.

Kengash raisi **X.Yodgorov**